

YUHANNONING

UCHINCHI MAKUBI

Kirish

Mazkur maktub muallifi Iso Masihning shogirdi Yuhannodir. Yuhanno bu maktubini imonlilar jamoatining yetakchisi Gayusga yo'llagan.

Mazkur maktubda muallif imonli birodarlarini bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli bo'lishga undaydi. Yuhanno Gayusning jamoatidan olgan xabarga ko'ra, Diotrefes ismli betavfiq bir odam jamoat boshqaruvini o'z zimmasiga olib, Yuhanno yuborgan muallimlarni qabul qilmagan ekan. Ularga mehmondo'stlik ko'rsatgan birodarlarni esa jamoatdan quvib chiqargan ekan. Yuhanno Diotrefesning bu qilmishlarini qoralaydi, Gayusni esa maqtab, safardagi muallimlarga ko'rsatgan mehmondo'stligi uchun unga o'z minnatdorchilagini bildiradi.

Yuhannoning uchinchi maktubi juda qisqa bo'lgani uchun boblarga bo'linmagan.

1–BOB

Duoyi salom

¹ Chin ko'ngildan yaxshi ko'radigan aziz birodarim Gayusga men — oqsoqoldan* salom!

² Aziz do'stim, hamma ishlaringga Xudodan rivoj tilayman. Tanang, ruhing singari, sog'–salomat bo'lsin.

Gayusning maqtovga loyiq mehmondo'stligi

³ Har safar birodarlarimiz kelib, sening haqiqatga sodiq qolganiningni va haqiqat bo'yicha yashayotganiningni aytishganda, men g'oyat xursand bo'laman. ⁴ Men uchun farzandlarimning* haqiqat bo'yicha yashayotganlarini eshitishdan kattaroq xursandchilik yo'q.

⁵ Aziz do'stim, sen birodarlarimizga, hatto o'zing tanimaganlarga ham, doim sadoqat bilan yordam berib kelyapsan. ⁶ Ular sening mehribonliging to'g'risida imonlilar jamoatiga aytib yurishibdi. Bu ishingni davom ettiraver, Xudoga munosib tarzda safardagi birodarlarga yordam ber. ⁷ Axir, ular Masih nomi uchun yo'lga chiqqanlar. Imonsizlardan* hech qanday yordam olmaslikka qaror qilganlar. ⁸ Biz bunday odamlarni qo'llab–quvvatlashimiz kerak, shunda haqiqatni e'lon qilishda ularga hamkor bo'lamiz.

Diotrefes va Demitrus

⁹ Men imonlilar jamoatiga* bir maktub yozgan edim. Ammo ularning oralarida o'zini katta tutayotgan Diotrefes gaplarimizga e'tibor bermayapti. ¹⁰ Agar borsam, uning qilmishlarini fosh etaman. U biz haqimizda yomon gaplar tarqatib, tuhmat qilib yuribdi. Bu bilan ham kifoyalanmay, birodarlarni qabul qilmayapti, qabul qilmoqchi bo'lganlarga to'sqinlik qilib, ularni hatto jamoatdan quvib chiqaryapti.

¹¹ Aziz birodarim, sen yomonlikka emas, yaxshilikka taqlid qil. Yaxshilik qiluvchi odam Xudodandir. Yomonlik qiluvchi esa Xudoni ko'rmagan.

¹² Demitrus* haqida esa hamma yaxshi gapirmoqda, uning hayotida va ta'limotida

aks etgan haqiqatning o'zi ham u tomondadir. Biz ham u haqda yaxshi fikrdamiz, gapimiz to'g'ri ekanligini o'zing bilasan.

Xayrlashuv

¹³ Senga aytadigan gapim ko'p, ammo ularni siyoh bilan qog'ozga yozishni istamadim. ¹⁴ Undan ko'ra, yaqin orada o'zing bilan yuzma-yuz ko'rishib gaplashaman degan umiddaman. ¹⁵ Tinch-omon bo'lgin. Do'stlarimiz senga salom yo'llayaptilar. U yerdagi do'stlarimga ham nomma-nom salom aytib qo'y.

IZOHLAR

1:1 *oqsoqol* — ya'ni havoriy Yuhanno.

1:4 *farzandlarim* — Yuhannoning o'z farzandlari emas. Yuhanno ularning ruhiy yo'lboshchisi bo'lib, aziz imonlilarga shunday murojaat qilgan.

1:7 *Imonsizlar* — ulardan Xushxabarni eshitadigan odamlar.

1:9 *imonlilar jamoati* — Gayus va Diotrefes a'zo bo'lgan jamoat nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

1:12 *Demitrus* — Xushxabarni yoyish maqsadida safarga chiqqan, ushbu maktubni Gayusga olib borayotgan odam bo'lishi mumkin.